

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРИГИ**

ГУЛИСТОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ФИЗИКА КАФЕДРАСИ ЎҚИТУВЧИСИ ОБИДОВА ЗУХРА
НАСРИДДИНОВНАНИНГ**

**Umumta'lim maktab o'quvchilarida fizikaviy tasavvur va tushunchalarning
metodologiyasini umumlashtirilgan darslarda qo'llash metodikasi**

ГУЛИСТОН 2021 йил

Umumta'lim maktab o'quvchilarida fizikaviy tasavvur va tushunchalarning metodologiyasini umumlashtirilgan darslarda qo'llash metodikasi

Obidova Z

Annatasiya: Keltirilgan metodikada metodologiyaning eng muhim elementlardan:elementarli, saqlanish va olamning yagonalik g'oyalariga tarixiy elementlarni kiritish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarash funksiyalarini shakllantirish yollari va usullari tavsiya etilgan. Umumlashtirilgan darslarda **generalizatsiyalash** metodikasi qo'lanilishi natijasida barcha fizik bilimlarni yagona g'oya atrofida birlashtirish orqali fizika tarixidagi ko'blab ma'lumotlarni ixchamlashtirishga olib kelingan. Bu esa vaqt tejash va shu bilan birga juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish mumkinligi yoritilgan

Umumta'lim maktablarda fizika o'qitishdagi ilmiy bilish metodologiyasining dunyoqarash funksiyalari ma'lum darajada ochib berilgan. Ilmiy dunyoqarash insonning g'oyaviy mohiyatini belgilab beradi. Shuning uchun, har bir insonda uning faoliyatidan qat'iy nazar zamonaviy ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi zarur.

Pedagogikada anchagina massiv umumpedagogik, didaktik va metodik tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga bag'ishlangan. Shunga qaramasdan, maktab fizika kursini o'qitishda ushbu masala hanuzgacha talab darajasida hal qilinganicha yo'q. Jumladan, pedagogika fanlar akademiyasining akademigi E.I. Monoszon fikricha ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ayrim nazariy masalalari hanuzgacha hal qilinmagan. Umumta'lim maktabda fizika o'qitishga taalluqli darsliklarda, o'quv qo'llanmalarda, dasturlarda fizika o'qitish amaliyotida dunyoqarash masalalari miqdoriy jihatdan ham, ayniqsa sifat jihatdan ham munosib o'rnini topganicha yo'q.

Dastlab "o'quvchilarning ilmiy dunyoqarash" tushunchasini mohiyatini ko'rib chiqaylik.Shuni aytish lozimki, pedagogik adabiyotda ushbu

tushuncha”dialektik-materialistik dunyoqarash”, tabiiy-ilmiy dunyoqarash” kabilar bilan yonma-yon turadi.

Ikkinchi tomondan, ko‘pchilik hollarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalasi o‘quvchilar tomonidan ilmiy dunyoqarash tushunchalari va tasavvurlari bilan chegaralanadi. Bunday holat shu bilan tushuntiriladiki, hozirgacha ”o‘quvchining ilmiy dunyoqarashi” tushunchasining tabiati metodik tadqiqot predmeti sifatida ochib berilmagan. Fizika o‘qitish metodikasida ushbu tushuncha tayyor holda berilib, u falsafadan olingan. Dunyoqarashning mazmunining asosini tarkibiy qismi quyidagilardir: Dialektik va tarixiy materializm, iqtisodiy tarbiya va demokratik jamiyat. Ayrim faylasuflar dunyoqarashning mazmuniy jihatiga aniq fanlarning umumlashgan ma’lumotlarini ham qo‘shadi. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi o‘ziga xos umumiyliigi va ko‘pqirrali jihatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham ushbu tushunchaga qaat’iy ta’rif berish qiyin.

Fizika o‘qitish samarali bo‘lishi uchun ilmiy bilish metodologiyasining dunyoqarash funksiyasini ochib berish muhim hisoblanadi. Quyida bayon qilinadigan holatlar qator psixologik-pedagogik, didaktik va metodik tadqiqotlarda olib borilgan dunyoqarashni shakllantirishga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qilishga asoslangan [1.]. Ushbu ishlar o‘qituvchilarga o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishga ko‘rsatma beradi: 1. Dunyoqarashni shakllantirish, bir vaqtda va birgalikda predmet materialini o‘zlashtirish jaryonida olib boriladi. Barcha o‘quv-tarbiyaviy ishlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgani uchun, darslarda unga bag‘ishlangan maxsus soat yo‘q, chunki o‘quv jarayoni bilan paralell tarzda olib boriladi. Shuni aytish kerakki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodlar hozircha mavjud emas, bu esa ma’lum darajada o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatini qiyinlashtiradi.

2. Agar dunyoqarashni shakllantirish aniq o‘quv fizik materialni o‘zlashtirish bilan olib borilsa va dunyoqarash jihati maqsadga muvofiq va ongli tarzda olib borilsa samarali bo‘ladi. Masalan, o‘quv faoliyati jarayonida o‘quvchilar tajriba o‘tkazishsa, kuzatish, o‘lchash, olingan natijalarni bayon qilish va tahlil qilishsa, asboblarni tuzatishsa, eksperimental tavsifdagi aniq bilim va malakaga ega

bo'lishadi. Ammo ushbu bilan chegaralanib qolmaslik kerak, o'quvchilar tomonidan nazariy-bilish ya'ni eksperimentning metodologik jixatini ilmiy bilish metodi sifatida qarash kerak. Shuning uchun, o'quvchi u yoki bu tajribani bajarishda belgilab qo'yilgan ramkadan chiqib, uni metodologiya nuqtai nazardan qarashi zarur. Ushbu holdagina ya'ni qachonki aniq material dunyoqarash bilan bog'langandagina ishonchga o'tadi. Boshqacha aytganda, bilish manbai bo'lib moddiy olam hisoblanadi, inson bilish jarayonida ma'lum bo'lgan qonunlardan foydalanib, olamni o'zgartiradi,


3.Dunyoqarashni shakllantirish muvafaqiyatli bo'ladi, agarda dunyoqarashga taalluqli bilimlar dolzarb bo'lsa va ishonchga aylansa hamda o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish jarayonidagi amaliy faoliyati samarali bo'lsa. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosini hal qilishda adashmaslik kerak, chunki insonga dunyoqarash shunchaki emas, balki uning amaliy faoliyatida ya'ni o'quv va mehnat faoliyatida yuzaga kelgan ishlab chiqarish va hayotiy muammolarni samarali yechishga xizmat qilishi zarur. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning qiymati shundan iborat. Psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ishonchli ko'rsatkich bu "falsafiy bilimlar o'quvchilarning shaxsiy qarashlariga aylanishi uchun, ularning shaxsiy dialektik-materialistik tushunishiga aylanishi lozim"[2, 6.29]. Shuning uchun ham keyingi holat katta ahamiyatga ega.

4.Har bir o'quvchida dunyoqarashni shakllantirish – ular tomonidan ushbu bosqichlarni mustaqil o'tishni ya'ni bilimlarni egallashdan boshlab ishonch hosil qilishgacha bo'lgan jarayondir. Yuqorida aytildiki, dunyoqarashga oid bilimlarni va ishonchni shakllantirish shaxsiy tavsifga ega. Yuqorida aytilgandek, dunyoqarash bilimlarni va ishonchlarni shakllantirish shaxsiy tavsifga ega. Chunki dunyoqarash, olam to'g'risidagi olamdagi va jamiyatdagi hodisalar to'g'risidagi qarashlar hamda uning qonuniyatlari to'g'risidagi tasavvurlar oddiy o'rganish bo'lmasdan, o'quvchining ichki dunyoqarashidan o'tishi kerak va uning shaxsiy bahosi va ishonchini qozonishti lozim. Bular boshqa insonlar dunyoqarashiga va tayyor holdagi o'qituvchining dunyoqarashiga bog'liq emas. O'quvchilar mustaqil tarzda o'quv materialini tahlil qilishi hamda undagi materialistik va idealistik

qarashlarni ajrata olishi lozim, bu jaroayonda u o'zining nuqtai nazariga asoslanishi kerak.

5. O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishni o'qituvchi yo'naltiradi va nazorat qiladi. Buning uchun u faqatgina dunyoqarash tavsifidagi bilimlarni beribgina qolmasdan, o'quvchilarning faoliyatini unga yo'naltirishi lozim. Shundagina o'quvchilarda dunyoqarash qanday davrajada shakllangani ayon bo'ladi.

Ushbu ishlar "o'qituvchi- o'quvchi" tizimida amalga oshadi. Chunki, bu narsa tematik reja va alohida dars rejasini tuzishda hisobga olinishi lozim. O'qituvchi mavzuning dunyoqarash jihatdan tahlil qilishi zarur, bundan tashqari yetakchi metodologik g'oya va holatlarni ajratishi lozim, ular quyidagi blok – bosqichlar sxemasida keltirilgan:



Yuqorida ko'rsatilgan holatlar o'quvchining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonini qamrab oladi, shuning uchun tamoyillar rolini o'ynaydi.

Endi dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositalarini va uning shakllanganlik darajasini aniqlovchi usullarni ajratib olaylik. Bizning tadqiqotimiz

shuni ko'rsatdiki, o'qitish javrayonidagi eng samarali shakllantirish vositalari bo'lib:

- ◆ o'quvchilar tomonidan metodologik tavsifdagi o'quv materialini mustaqil tahlil qilishi hamda materialistik va idealistik nuqtai nazardan fizik hodisalar, qonunlar, nazariyalar, g'oyalarni talqin qilish;

- ◆ o'quvchilarning o'z fikriga asoslangan metodologik jihatdan asoslash va isbotlash;

- ◆ o'quvchilarni metodologik noto'g'ri ig'vogarlik xarakterdagi vaziyatlar bilan to'qnashuvi, ulardan bunday fikrlarni rad qilishni, ularga faol qarshilik ko'rsatishni, o'zlarining qarashlarini saqlab qolishi muhim hisoblanadi. O'quvchida dunyoqarashni shakllanganining sinovi bo'lib keng ma'noda uning o'zini tutishi hisoblanadi ya'ni uning fikrlari mazmuni, hissiyoti va hohishi, chunki ular ichki birlikni hosil qilib, ular fizika fanining rivojlanish jarayonida yuzaga keladi. Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha,[3] hozirgi paytda o'ta ishonchli dunyoqarashni shakllanganini aniqlaydigan psixologik usullar mavjud emas, lekin ilmiy dunyoqarashni ayrim jihatlarini shakllanganligini aniqlaydigan usullar mavjud. Masalan, o'quvchilarning fikrlari va javoblarining emotsionalligi, fikrlarning mustaqilligi va ta'riflarning kitobga mosligi; buyuk olimlarning o'rganilayotgan hodisalarga bergan baholari va qiziqishlari, agar bunday baholashlar darslikda bo'lsa yoki o'qituvchi tomonidan keltirilsa va aksincha , dunyoqarash va ilmshunoslik masalalariga hamda olimlarning hayoti va faoliyatiga befarqlik va boshq.

Bunday "bo'yab" ko'rsatilgan hissiy ko'rsatkichlarning shakllanganligini boshqalar bilan birlashtirish: dunyoqarashning ishonchli bazasini tashkil qiluvchi aniq, qonuniyatlarni ishonchli bilishi, tushunchalar, nazariyalar: o'zining ishonchlarini tanish va notanish vaziyatlarda namoyon qilishi; o'zining ishonchlari nuqtai nazaridan tizimli baholash; fikrlarning turg'unligidir [4]. Ushbu barcha belgilarni hisobga olish asosida o'quvchilarda dunyoqarashni shakllanganlik darajasi to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Shunday qilib, o'quvchilarning shakllanishiga uzoq vaqt talab qiladigan dunyoqarashni shakllantirish jarayonida ma'sul bosqich olgan bilimlarni "loyihalashtirish" va uning "ichki dunyosi"ni belgilovchi omildir. Bunday intellektual ishni u ongli tarzda o'qituvchi rahbarligida amalga oshiradi, buning uchun u zarur metodologik bilim va ko'nikmalardan foydalanadi va natijada o'quvchida ma'lum darajada fikrlash uslubi shakllanadi.

Falsafada fikrlash uslubi bilan bilimlarni mantiqiy tamoyillar tizimi bog'lanadi[5].Shuning uchun fandagi fikrlash, jumladan, fizikada olamning fizik manzarasini yaratishda ma'lum bir metodologik rol o'ynaydi. Uning mantiqiy qarama-qarshi emasligi va birligini ta'minlab, dastlabki tamoyillarni va OFM kiruvchi turli nazariyalarning matematik apparatini moslashtiruvchi fikrlash uslubi OFM ning metodologik asosini tashkil qiladi. Uni fikrlash uslubi bilan bog'lanishi fizikaning tarixiy rivojlanishini tahlil qilishda yaqqol ko'rinadi: olamning fizik manzarasini almashishi tufayli fikrlash uslubi ham rivojlanadi. Ma'lumki, bunday manzaralar uchta: mexanik, elektromagnit va kvantoviy maydon.

Olamning mexanik va elektromagnit manzaralari ontomom farq qilishiga qaramasdan, ularda yagona metodologik asosga ega – klassik va mexanik fikrlash uslubiga ega. Ushbu fikrlashning asosiy belgisi hodisalar mohiyatining bir qiymatli tavsifga ega ekanligi va sababiyatning laplas idealini absolyutlashtirishdadir. Mexanik va elektromagnit olam manzaralarida har bir ob'ektning harakati oldindan aniq bo'lib, uni kelajakdagi holatini aniq bilish mumkin, agar ob'ektga ta'sir qiluvchi kuchlar ma'lum bo'lsa. Boshqacha aytganda, ob'ektning o'zini tutishi qat'iy determinarlashgan va u hech qanday tasodiflarga ega emas ya'ni bir qiymatli. Tabiat hodisalari insonga bog'liq bo'lmagan holda yuz berib, insonning kuzatishiga bog'liq emas. Tabiat va olam manzarasi klassik fizikada absolyut aniqlik bilan ishlaydigan katta mashinaga o'xshaydi.

XVIII–IX asrlarda fizikada ushbu fikrlash uslubi ijobiy rol' o'ynadi, natijada olimlarni barcha fizik hodisalarni tushuntiruvchi universal nazariya yaratishga undadi. Olamning mexanik manzarasidan IX-asrda hukmron bo'lgan elektromagnitga o'tishda fizik fikrlashning klassik uslubi tabiiy-ilmiy bilishning

ideali sifatida shakllandi. Bunda u yangi ontologik bazaga ega bo'lib, maydon g'oyasi bilan tavsiflandi: yaqindan ta'sir va relyativistik.

XX-asrda fizikaning rivojlanishi mexanik fikrlash uslubini cheklanganligini ko'rsatdi. Yuzaga kelgan kvantoviy-maydon manzarasi bag'rida yangi fikrlash uslubi paydo bo'ldi, u ehtimoliy tavsifga ega edi. Statistik qonuniyatlar ehtimollar nazariyasi elementlari bilan klassik fizikada issiqlik hodisalarini o'rganishda paydo bo'lganiga qaramasdan, alohida zarraning o'zini tutishi qat'iy determinatsiyalashgan bo'lib, N'yuton tenglamalari orqali ifodalanar edi. Lekin ko'p sonli zarralarning atom va molekularning holatini har bir vaqt momentida ifodalashning ilojisi yo'qligi uchun statistik o'rtachalashni kiritishga majbur qildi.

Zamonaviy olam manzarasining xususiyatiga ko'ra dinamik qonuniyatlardan statistik qonuniyatlarga o'tish kerakligi ayon bo'ldi. Statistika barcha mikrohodisalar asosida yotib, statistik tavsif mikrohodisalarning barchasiga taalluqli bo'lib, ular yetarli darajadagi aniqlikda katta zarralar ansamblini ifodalaydi, har bir zarraning holatini ma'lum ehtimollik bilan ifodalaydi.

Zamonaviy fikrlash uslubining boshqa xususiyatlarini ham ta'kidlash lozim, bu esa kvantoviy-maydon OFM ning metodologik asosini tashkil qiladi. Klassik fizikadagi olamning mexanik va elektromagnit manzarasi tabiatni o'rganishda o'lchash operatsiyasiga diqqatni jalb qiladi. Klassik fizikada bilish real hodisalarning yaqqol modeli orqali amalga oshiriladi. Tushunish tili hisoblangan ushbu modellar mikroolamni bilish jarayonida insonlar tomonidan yaratilgandir. N.Borning ta'rifiga ko'ra mikroolamning tabiati makroolamdan boshqacha bo'lib, o'zining bayon qilinishi uchun shunday modellarni talab qiladiki, ular makroolam fizikasi tarkibida yo'q. Shunga qaramasdan, makrofizika tushunchalaridan foydalanish imkoniyati mavjud ekan, uning modeli masalan, mikrozaralar uchun "to'lqin va zarra" modeli ammo uning o'rinli ekanligi ma'lum chegaragacha ekanligi keyinchalik ma'lum bo'ldi. Bu chegarani Geyzenberg noaniqlik munosabatlari ko'rsatib beradi, jumladan, $\Delta x \Delta p_x \geq 2\pi\hbar$, va boshqa, bular insonga bog'liq bo'lmagan umumiy, zaruriy va muhim bog'lanishlarni ifodalaydi.

Ushbu munosabatlar tabiatning ob'ektiv qonunini ifodalaydi va tabiatni inson tomonidan o'rganish chegarasini emas, balki makromodel va makroasboblarni mikroolamga qo'llash chegarasini ko'rsatadi. Sanab o'tilgan zamonaviy fizik fikrlash uslubining belgilari, asosan kvant mexikaning asosiy g'oyalari asosida shakllangan bo'lib, hozirgi vaqtda eksperimental va nazariy sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni tavsiflaydi. Ular hodisa va qonuniyatlarni ilmiy tushuntirishning idealini tashkil qilib, olimning ishonch va qarashlarini tashkil qiladi. Pedagogik maqsadlarda shuni aytish kerakki, fikrlash uslubi eng invariant bo'lib, u olamning fizik manzarasiga nisbatan sekin o'zgaradi, uni egallagan odamlardan psixologik turg'unligi bo'yicha ajralib turadi. Yaxshi ma'lum bo'lgan bir qator klassik fikrlash ruhida tarbiyalangan fizika namoyondalari M.Plank, A.Eynshteyn, Lui-de Broyl, E.Shryodinger va boshqalarni yangilikka ya'ni ehtimoliy fikrlash uslubiga qarshilik ko'rsatganini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bunga yaqqol misol qilib, Eynshteynning quyidagi fikrini keltirish o'rinlidir: "Xudo tabiatni yaratayotganda oshiq otgan degan fikrga ishonmayman" Kvant fizikaning yaratuvchilaridan biri V.Pauli bunga qarshi quyidagicha fikrni aytgan: "Men ishonamanki, to'lqin funktsiyaning statistik talqini va tabiat qonunlari uslubini yuz yilliklar davomida aniqlaydi".

Mumkin, keyinchalik hayot jarayoni bilan bog'liq tarzda, qandaydir yangi yondashuv topilishi mumkin, ammo o'tmishga qaytish to'g'risida orzu qilib bo'lmaydi, ya'ni N'yuton va Maksvellning klassik usuliga qaytish o'ta ishonchsizdir[6]. Fizika tarixidan keltirilgan ushbu misol fikrlash uslubining turg'unligidan dalolat beradi va u olamning fizik manzarasining asosida yotadi va ishonchga aylanadi hamda uning uchun kurashishga undaydi. Agar insonda odatda u o'smirlik va yoshlik yillarda dunyoqarash shakllangan bo'lsa garchand u noto'g'ri bo'lsa ham, keyinchalik boshqa dunyoqarashga o'tish ehtimoli juda kam. Fikrlashning kibernetik uslubi fizika va tabiatshunoslikdan tashqarisiga chiqsa ham, u umumilmiy fikrlash uslubiga aylanmoqda, uning avvalgidan farqi shundaki, nazariy tizimlarning mantiqiy tuzilishi va tadqiqot vazifalarini qo'yilish usulidadir.

Fan tarixi shuni ko'rsatadiki, bilimlarni **generalizatsiyalash** har doim mavjud bo'lib, fanning rivojlanishini borishini aniqlagan, lekin bu narsa faqatgina ilmiy-texnik revolyutsiya davridagina ayon bo'ldi. Fizikaning rivojlanishini bilimlarning chiziqli o'sishi bilan taqqoslash noo'rindir. Tarixiy jarayonda fizik bilimlarda zichlashish, ularning mazmunini o'zgartirish asosida qisqartirish, boshqacha aytganda generalizatsiyalash yuz beradi. Masalan, magnetizm bo'yicha Gil'bert zamonidan boshlangan tadqiqotlar Ersted, Amper va Faradey kashfiyotlaridan keyin tashlab yuborilmadi, balki barcha haqiqiy natijalar zamonaviy fizika kursiga faqat magnetizm kuchning alohida turi ko'rinishida emas, balki elektromagnit o'zaro ta'sirning namoyon bo'lishi sifatida o'tdi. A.I. Markushevich taklif qilgan bilimlar modelida generalizatsiyalash quyidagich tasvirlangan: "yadro" ilmiy bilimlarning zichlashishi tufayli "siqilish" xususiyatiga ega, bu esa fandagi kashf qilingan yangi va chuqur bilimlar hisobiga amalga oshadi. Masalan, Neter teoremasi impul's va energiyaning saqlanish qonunlarini fazo va vaqtning simmetriya xossasi natijasi ekanligidir. Bu esa yangi bilimlarning generalizatsiyalashning yuqori darajasini ko'satadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida o'quv bilimlarini generalizatsiyalashning metodik maqomini qarab chiqish mumkin. Qilgan tahlilning asosiy tomonlarini o'quv faoliyatiga ko'chirish, o'quv bilimlarni generalizatsiyalashning metodik maqomini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, bilimlar hajmini ko'paytirish masalasini o'rganish uchun vaqtni tejash, o'quv materialini ixcham bayon qilish maktab amaliyotida va fizika o'qitish metodikasida hal qilish hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Uni hal qilishga oid ayrim fikrlarni bildirish mumkin. Birinchi yo'li, maktab fizika kursini qayd qilish vositalarini takomillashtirish va o'quvchilarga fizik bilimlarni uzatishni tashkil qilish. Bilimlar hajmini bunday ko'paytirish va tejankorlik asosida o'qitishni o'quv materialini minimallashtirish deyish mumkin. Bunga misol qilib, vektorlar algebrasini mexanikani o'qitishda qo'llanilishini ko'rsatish mumkin. Ikkinchi yo'l o'quv bilimlarining mazmunini o'zgartirish bilan ya'ni generalizatsiyalash bilan bog'liqdir. Natijada mazmun minimumga tushib, fizika o'qitishning o'quv-tarbiyaviy masalalarini samarali hal qilishga olib keladi.

Ushbu jarayondan chetda qolgan fizikaning masalalari, garchand ular muhim va o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lsa ham, metodik ishlanganligi va boshqa mezonlar fizika asoslariga o'quv predmeti sifatida maktabda kiritilmaydi. O'quv bilimlarini generalizatsiyalash tamoyili maktab fizika kursining mazmunini aniqlash tamoyili sifatida, shuni bildiradiki, minimal hajmdagi bilimlarni shunday mazmunini belgilash ya'ni katta bilish hajmiga ega bo'lgan talablarni bildiradi. Umuman olganda bunday ta'rif fizikadagi o'quv materialini generalizatsiyalashni fizikadan yangi dasturda: "o'quv materialini va uni o'qitishni shunday tanlash va undagi asosiy diqqat muhim dalillar, tushunchalar, nazariyalar va fizika metodlariga, fizik hodislarni umumlashtirishga qaratilgan bo'ladi". Maktab fizika kursida ushbu tamoyilna qo'llash ayrim metodik masalalarni samarali hal qilishga, ayniqsa, o'quv materialini qisqartirishning maqbul yo'lini tanlashga olib keladi.

Chunki, fanda kashf qilingan va yosh avlod tomonidan ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida o'zlashtirilgan yangiliklar orasidagi vaqt katta bo'lmasligi kerak. Masalan, keyingi 20 – 25 yil ichida fizikadan dasturga quyidagicha yangi masalalar: kosmik tezliklar, lazerlar, tezlatkichlar, yarimo'tkazgichlardagi tok, yadrodagisintez reaksiyalar, elementar zarralarning tarkibi va sinflari va boshq. Shu bilan bir qatorda, o'quvchining bilish imkoniyatlari deyarli o'zgarmasdan kelmoqda, shuning uchun dasturga qo'yiladigan qat'iy talab, uning muntazam ravishda yangi axborotlar hisobiga to'ldirilishidir. Afsuski, ayrim hollarda asosiz tarzda qisqartirish, salbiy holatlarga olib kelmoqda. Bunga misol qilib, "Maxsus nisbiylik nazariyasining" 11-sinfga kiritilishini ko'rsatish mumkin. Albatta, ilmiy axborotning uzluksiz ravishda ko'payishi, ularni o'quv jarayoniga kiritishni taqozo qiladi, shuning uchun qisqartirishda ehtiyot bo'lishni va uni ilmiy nuqtai nazardan asoslashni talab qiladi. Demak, bu jarayonda o'quv materialini gkgeneralizatsiyalash muhim o'rin tutadi. O'quv jarayonida ushbu tamoyil muhim rol o'ynaydi, unga asoslanib o'quv bilimlarini generalizatsiyalash asosida, avval empirik qonunlarga asoslangan ko'plab hodisalarni nazariyalar asosida tushuntirish samarali hisoblanadi. Bunday jarayon ideal gazlarning xossalarini o'rganishda yangi dasturda namoyon bo'lgan, unda bilimlarni generalizatsiyalash –

ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi va temperatura tushunchasini gaz ichki energiyaning o'rtacha statistik tavsifi ekanligi – alohida empirik qonunlarni Boyle-Mariott, Gey-Lyussak va Sharl qonunlarinialohida qarash samarasiz ekanligini ko'rsatdi, natijada generalizatsiyalash o'quv materialini ancha qisqarishga olib keldi.

Bunday qisqartirishga yaqqol misol bo'lib, elektrodinamikani shunday o'qitish hisoblanadiki, unda generalizatsiyalangan o'quv materilai hisoblanadiki, unda Maksvell tenglamalari elektromagnit maydonni sifat jihatidan elektromagnit maydon va uning xususiy hollarda namoyon bo'lishi sifatida qaraladi: elektrostatik maydon, tokning magnit maydoni, uyurmali elektr maydoni, elektromagnit to'lqin .

O'quv materialini generalizatsiyalash o'quv materialini yanada chuqur o'zlashtirishni taqozo qiladi, esda saqlab qolish darajasidan ijodiy o'zlashtirish darajasiga o'tishni va o'zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashgacha bo'lgan darajada o'zlashtirishga olib keladi. Ushbu holatni yuqorida aytilgan ideal gaz xossalarini o'rganishda namoyon qilamiz.

Ushbu mavzuni odatdagi bayon qilishda Boyle-mariott, Gey- Lyussak va Sharl qonunlari asosidagi empirik qonunlarga asoslanganini bilamiz, va so'ngra ular umumlashtirish sifatida Mendeleyev-Klapeyron tenglamasiga asoslanishini bilamiz. Shuni aytish kerakki, fanda ushbu qonunlar gazlarning turli holatlarda o'zini tutishini ifodalab, ular turli tadqiqotchilar tomonidan turli vaqtlarda kashf qilingan, ammo ushbu qonunlar orasidagi bog'lanishlar topilmagan. Fizikaning rivojlanishidagi ushbu holat to'la holatda maktab fizika kursiga o'tkazilgan. Ular tabiatni empirik tadqiqot qilishga asoslanigan. Yuqoridagi qonunlarning har biri alohida o'rganish predmeti bo'lgan. Yangi dasturda, yuqoridaa aytilgandek, bilim katta generalizatsiyalash kuchiga ega ekan. O'quvchilar, hozirda mustaqil ravishda oldin noma'lum bo'lgan gaz parametrlari orasidagi bog'lanishlarni nazariy jihatdan "kashf" qiladi, Bu yerda asosiy ish bayon qilishni induksiya va deduktsiya asosida qayta bayon qilish emas, bu narsa metodistlar tahlilida uchraydi, bu yerda gap pedagogik maqsadlarni generalizatsiya asosida amalga oshirish yotadi, buning

uchun o'qituvchi va o'quvchilar kam kuch sarflab, katta samaraga erishishi zarur. Haqiqatda, Babanskiy Yu.K. o'qitishni maqbullashtirish nazariyasini yaratishda, quyidagicha ta'rif beradi: "O'quv –tarbiyaviy jarayonni maqbullashtirish uchun o'qituvchini maqsadga yo'naltirilgan eng yaxshi berilgan vaqt va variantini tanlash va bu jarayonni o'quvchilarga tarbiya berish va tarbiyalashda samarali bo'lishini ta'minlaydi" [10]. Shunday qilib, o'rganilayotgan ko'plab hodisalar, tushunchalar, qonuniyatlarni katta bilish kuchiga ega bo'lishi muhim yo'nalishni belgilab, maktab fizika kursining maqbul mazmunini yaratishga yo'nalish beradi, bu esa generalizatsiyalash funktsiyasining mohiyatini ifodalaydi.

O'qitish jarayonida generalizatsiyalash tamoyili ikki narsani nazarda tutadi: 1 generalizatsiyalaydigan bilimlarni qidirish va 2. barcha o'quv materialini ushbu bilimlar asosida to'plash.

Ayrim metodik tadqiqotlarda fizika kursining ayrim bo'limlarini lokal, ya'ni alohida mavzu yoki bo'lim asosida generalizatsiyalash nazarda tutiladi. Bunday ishlarga E.E.Evenchik mexanika bo'limi [7], L.I.Svitkov, V.V.Usanov Molekulyar fizika va issiqlik bo'limi, S.L.Vol'shteyna, S.E.Kamenetskiy Elektrodinamika asoslari, N.A.Rodina, I.G.Pustil'nik Optika, atom fizika va boshqalarni kiritish mumkin.

Lokal generalizatsiyalashda generalizatsiyalovchi bilimlar sifatida fundamental nazariyaning yadrosi yoki uning alohida qismi qatnashadi. Mexanikada – harakatning uchta qonuni va butun olam tortishish qonuni, energiya va impul'sning saqlanish qonuni; molekulyar fizika va issiqlikda molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy holat, statistik sistemaning muvozanat holati, molekulalarning tartibsiz harakati, energiyani erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishi, ideal gaz kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi, termodinamik tamoyillari; elektrodinamikada – elektromagnit maydon to'g'risida yaxlit ta'limot beruvchi Maksvell tenglamalari, Lorents elektron nazariyasining asosiy holatlari; optika va atom fizikasida- yorug'likning va elementar zarralarning to'lqin va kvantoviy hossalari dualizmi, nurlanishning kvant nazariyasi, Bor postulatlari va

orbitalarni kvantlash, elementar zarralarning kvantiviy mexanik tavsiflari va sinflarga bo‘linishi.

Zamonaviy fizika kursini asosini tashkil qiluvchi lokal generalizatsiyalash bilan bir qatorda, barcha kursni qamrab olgan global generalizatsiyalash ham mavjuddir. Bunda generalizatsiyalovchi bilimlar sifatida umumiy tavsifdagi holatlar turadi, ular metodologikka yaqindir. A.A. Pinskiyning ishlarida generalizatsiyalovchi bilimlar sifatida fizik relyativizm g‘oyasi turadi [92]. V.V.Multanovskiy ishlarida esa – fizik o‘zarota’sir g‘oyasi [17] turadi.

Shuning uchun metodologik tavsifdagi global generalizatsiyalash maktab fizika kursida generalizatsiyalash funktsiyasi bilan bir qatorda dunyoqarash va bilish funktsiyalarini ham bajaradi. O‘quvchilarda fizikaning metodologik g‘oyalarini shakllanishtirishning asosiy bosqichlarini ko‘rsatish va ular atrofida barcha o‘quv materiali umumlashtiriladi, u quyida keltirilgan.

Olam fizik manzarasining birligi g‘oyasi, saqlanish qonuni,elementarlik g‘oyalari va boshqalar.

Ushbu g‘oyalarni tarixiy-metodologik yondashuv asosida fizika o‘qitishda shakllantirish metodikasi umumlashtirilgan darslarda bayon qilinadi.

Elementarli g‘oyalari orqali fizika kursidagi ma’lumotlarni umulashtiramiz.

Biz fizikaning barcha bo‘limlarida foydalaniladigan elementar zarra xaqida so‘z yuritamiz. Ular ko‘plab ko‘rinishlarga ega va bugun biz nafaqat ma’lum faktlarni takrorlaymiz, balki foydali bo‘ladigan ushbu qonunlarning amalda qo‘llanilishi haqida va ularning turli ko‘rinishlar xaqidagi ma’lumotlarni olamiz.

Daslab o‘qituvchi: fizikaning qaysi bo‘limlarida elementar zarralardan foydalanamiz?-deb savol beradi.

O‘quvchi quyidagi sinflarda olgan bilimlardan foydalangan holda quyidagicha javob beradi: mexanika, molekulyar fizika, elektrodinamika, atom va yadro fizika


O‘qituvchi: o‘quvchilarga quyidagida “elementar g‘oya“ atrofida barcha fizikaning bo‘limlaridagi ishlatiladigan elementar zarralarni klasser metodini ishlatish orqali

ulardagi


ilmiy

dunyoqarashni

shaklantiradi




O'qituvchi:6- sinda o'tilgan jismlar zarralardan tashkil topganligi va ilk bor eramizdan avvalgi yashab ijod etgan olim Demokritning fikrlari va uning ijodidan na'munalar keltiradi.




Demokritning falsafiy g'oyalar va qarashlar

1. **Atomlar nazariyasi**
2. Demokritning asosiy falsafiy yutug'i, albatta, atomlar nazariyasidir. Uning so'zlariga ko'ra, mavjud bo'lgan barcha narsalar eng kichik bo'linmaydigan zarralardan - atomlardan iborat. Atomlar orasida bo'sh joy mavjud bo'lib, atomlarning o'zi buzilmaydi va doimiy harakatda. Aristotel Demokritning so'zlarini keltirib, atomlarga o'r'ilik beradi, ammo bu butunlay to'g'ri emas. Demokritning kontekstga yaqin so'zlarini keltirish uchun u atomlarning harakati quyosh nurida hech qanday shamolsiz harakatlanadigan chang zarralariga o'xshaydi. To'qnashuv, atomlarning klasterlari girdoblarni hosil qiladi, ammo Anaxagoraning fikriga qaraganda, ularni ma'lum bir sabab (nous) emas, balki mexanik sabablar boshqaradi. Atomlarda bo'shlik yo'q, shuning uchun ular bo'linmaydi. Uning g'oyasini yaxshiroq tushunish uchun u olma bilan misol keltirdi: «Pichoq olma kesganda, u atomlarni emas, balki ular orasidagi bo'shliqni kesadi. agar olma bunday bo'shliqqa ega bo'lmaganida, uni kesish imkonsiz bo'lar edi»



